

PARAZIT CHUVALCHANGSIMONLAR ULARNI O'ZBEKISTON HUDUDI UCHRASHI ULARNI LABORATORIYA SHAROITIDA ANIQLASH

Xojimurod Muhammad Sodiq

Toshkent Shaxar tibbiy maslahat diagnostika markazi Shifokor laboranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13825143>

Annotatsiya. Ushbu maqolada, asosan odam, mahsuldor hayvonlar va madaniy o'simliklarda uchraydigan parazitlaming tuzilishi, biologiyasi, tarqalishi, tasnifi, qo'zg'atadigan kasalliklari va ularning oldini olish choralari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Parazitologiya, morfologiyasi, anatomiyasi, gistologiyasi, fiziologiyasi, embriologiyasi, ekologiyasi.

PARASITIC HELMINTHS, MEETING THEM IN THE TERRITORY OF UZBEKISTAN, IDENTIFYING THEM IN LABORATORY CONDITIONS

Abstract. This article provides information on the structure, biology, distribution, classification, diseases caused by parasites and their prevention measures, which are mainly found in humans, productive animals and cultivated plants.

Key words: Parasitology, morphology, anatomy, histology, physiology, embryology, ecology.

ПАРАЗИТАРНЫЕ ГЕЛЬМИНТЫ, ВСТРЕЧА ИХ НА ТЕРРИТОРИИ УЗБЕКИСТАНА, ВЫЯВЛЕНИЕ В ЛАБОРАТОРНЫХ УСЛОВИЯХ

Аннотация. В статье представлены сведения о строении, биологии, распространении, классификации, заболеваниях, вызываемых паразитами, и мерах их профилактики, которые преимущественно встречаются у человека, продуктивных животных и культурных растений.

Ключевые слова: Паразитология, морфология, анатомия, гистология, физиология, эмбриология, экология.

KIRISH

Parazitologiya (yunoncha parasites - tekinox'r, parazit va logos - ta'limot, fan demakdir) - biologiya fanining bir tarmog'i hisoblanib, parazitizm hodisalari, ya'ni parazit bilan xo'jayin o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, ularning tashqi muhit omillariga bog'liqligi, odam, hayvon, o'simliklarda uchrovchi parazitlar va ular qo'zg'atadigan kasalliklar hamda bu kasalliklarga qarshi kurash usullarini o'rganadigan fan.

Parazitologiya parazitlar morfologiyasi, anatomiyasi, gistologiyasi, fiziologiyasi, embriologiyasi, ekologiyasi, geografiyasi, tasnifi, filogeniyasi hamda parazit va xo'jayin o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tekshiradi. Akademik K.I. Skryabin parazitlarning kelib chiqishi xususiyatiga ko'ra, ularni o'rganadigan fanni ikki guruhga bo'ladi.

Birinchi guruh - fitoparazitologiya deyilib, u o'simliklar dunyosidan kelib chiqadigan bakteriya, virus va boshqa parazitlar hamda ular ta'sirida sodir bo'ladigan yuqumli kasalliklarni o'rgatadi.

Ikkinchi guruh - zooparazitologiya deyilib, qo'zg'atuvchisi hayvonot dunyosidan kelib chiqadigan (protozoolar, gelmintlar, zulumlar, bo'g'imoyoqlilar va boshqalar) har xil parazitlar ta'sirida paydo bo'ladigan kasalliklar hamda ularga qarshi kurash choralarini o'rgatadi.

Umuman, parazitlarni o'rganish obyektlariga ko'ra tibbiyot parazitologiyasi veterinariya parazitologiyasi, fitoparazitologiya va umumiy parazitologiyaga bo'linadi. Parazitologiya ko'pgina biologik, tibbiyot va veterinariya sohasidagi maxsus fanlar bilan chambarchas bog'langan. Parazitlarning tavsifi, morfologiyasi, biologiyasi va tasnifini o'rganish bilan zoologiya fani shug'ullanadi, ular qo'zg'atadigan kasalliklar patogenezi, klinikasi, diagnostikasi va davolashini o'rganish bilan esa patologik anatomiya, patologik fiziologiya, immunologiya, vimsologiya, mikrobiologiya, terapiya, farmakologiya, epizootologiya, xirurgiya, bioximiya, veterinariya-sanitariya ekspertizasi, zoogigiyena va boshqa fanlar shug'ullanadi hamda ulardagi tadqiqot usullaridan keng foydalaniladi.¹

Parazitologiya— parazit organizmlar sistematikasi, morfologiyasi, biol. si va ekologiyasi, parazit va xo'jayin o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni, odam, hayvon va o'simliklarda parazitlar qo'zg'atadigan kasalliklarni va ularga qarshi kurash usullarini o'rganadigan biol. fanlari kompleksi. Parazitning tuzilishi, hayot kechirishi, parazit yashashga moslashishi, rivojlanishi va geografik tarqalishini o'rganadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Parazitologiya muammolari biologiyaning umumiy muammolari bilan uyg'unlashib ketgan. Jumladan, parazitlarning morfologik va fiziologik moslashish muammolarini o'rganish "tur"ni nozologik jihatdan tushunish uchun asos bo'lib hisoblanadi. Amaliy jihatdan parazitologiya, parazitlar kasalliklarga qarshi kurashning ilmiy asoslarini ishlab chiqish orqali odam va hayvonlarning salomatligini saqlashga hamda o'simliklarni himoya qilishga qaratilgan.

¹ Большой ой энциклопедический словарь. Научное издательство "Большая Российская энциклопедия". М., 1998.

Hayvonot dunyosiga mansub parazitlar zooparazitlar, ular paydo qiladigan kasalliklar invazion kasalliklar; o'simliklarga mansub parazitlar fitoparazitlar, ular keltirib chiqaradigan kasalliklar infeksiyon kasalliklar deyiladi. Binobarin, kasalliklarni infeksiyon va invazion deb tasniflash, kasallik qo'zg'atuvchisining hayvonot yoki o'simlik dunyosiga mansubligiga asoslangan. Hayvonot va o'simlik dunyosiga mansub parazitlarni Ishkrobiologiya, epizootologiya, mikologiya, fitopatologiya kabi fanlar o'rganadi. O'simliklar tarkibidan alohida guruh viruslar — vira ajratilgan. Xalq xo'jaligidagi ahamiyatiga ko'ra, parazit umumiy parazit, tibbiyot parazitologiyasi, agronomiya parazitologiyasi, veterinariya parazitologiyasiga ajratiladi.

Umumiy parazitologiya shu fanning nazariy asoslari bo'lib, tirik organizmlarning o'zaro munosa-batlarini, parazit organizmlar sis-tematikasi, parazitlar kasalliklar patogenezini, davosi va oldini olish tad-birlarini o'rganadi. Odamlarda kasallik paydo qiluvchi parazitlarni tibbiyot parazitologiyasi, madaniy o'simliklarda parazitlik qiluvchi gelmintlar va bo'g'imoyoklilarni agronomiya parazitologiyasi o'rganadi va ularga karshi kurash choralarini ishlab chiqadi.

Parazitologiya hayvonlari parazitlari va ular keltirib chikaradigan kasalliklarni o'rganadigan hamda qarshi kurash usullarini ishlab chikadigan fan veterinariya parazitologiyasi deb ataladi. Veterinariya parazitologiyasi, o'z navbatida, parazit bir hujayralilarni o'rganadigan protozoologiya, parazit chuvalchaglarni o'rganadigan gelmintologiya, o'rgimchaksimonlar va hasharotlarni o'rganadigan araxnoentomologiya fanlariga ajratiladi.

Parazitologiya zoologiya bilan chambarchas bog'liq. Parazitlar morfologiyasi va sistematikasini bilish invazion kasalliklarga diagnoz qo'yish uchun zarur; ularning biol.si va ekologiyasini o'rganish esa uyg'unlashgan kurash choralarini ishlab chiqishning asosi hisoblanadi. Parazitologiya epizootologiya va epidemiologiya, fiziologiya, biokimyo, farmakologiya, toksikologiya, immunologiya, patologik anatomiya va boshqa biol., tibbiyot, veterinariya, qishloq xo'jaligi fanlari bilan ham bog'langan. Zamonaviy Parazitologiya biokimyo, immunologiya, elektron mikroskopiya, molekulyar biologiya va boshqa fanlarning tekshirish metodlaridan foydalanadi.

Parazit organizmlar to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar buyuk vatandoshimiz Abu Ali ibn Sino asarlarida uchraydi. Olim "Tib krnunlari"da askarida, ostritsa va rishta kabi parazit chuvalchanglar paydo qiladigan kasalliklar va ularni davolash to'g'risida anik, ma'lumotlar beradi.

Parazitologiya 19-asrga kelib mustaqil fan sifa-tida shakllana boshladi. Bu mikroskopning takomillashuvi, ko'plab mikro-skopik parazitlarning kashf etilishi va parazitlarning hayot sikllari o'rganilishi bilan bog'liq. O'rta Osiyoda parazitologiyaga oid ma'lumotlar 19-asrning 2yarmida Turkiston o'lkasi bo'ylab sayoxat qilgan rus naturalist olimi A. P. Fedchenko asarlarida uchraydi.

U Buxoro, Samarqand va Toshkentda bo'lib, har xil hayvonlarning parazit chuvalchanglarini yig'adi. Yi-g'ilgan materiallarni Daniya va Germaniya mutaxassislari yordamida ishlash natijasida, ularning 24 turga mansub ekanligi aniklanadi. 20-asr boshlarida O'zbekistonda Parazitologiya sohasidatadqiqotlarning rivojlanishi rus olimlari K. I. Skryabin, Ye. N. Pavlovskiy, V. A. Dogel, N. V. Badanin, L. M. Isayev va boshqalarning nomi bilan bog'liq.

O'zbekistonda parazitologiya fani, yuqorida ta'kidlaganimizdek, 4 yo'nalish bo'yicha shakllanib, nazariy va amaliy muammolarni xal etib kelmoqda:

- 1) umumiy parazitologiya;
- 2) tibbiyot parazitologiyasi;
- 3) veterinariya parazitologiyasi;
- 4) agronomiya Parazitologiya Umumiy

Parazitologiya bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar M. A. Sultonov, E. I. Gan, S. O. Osmanov, M. K. Qodirova, Q. S. Samadov, J. A. Azimov, T. K. Qobilov, S. Dadayeva, O. Davronov va boshqalarning ishlari bilan boglik. Tibbiyot parazitologiyasi sohasidagi tadqiqotlarning rivojlanishiga L. M. Isayev, B. M. Sodiqov, P. M. Lerner, V. R. Le-melev, N. A. Dehqonxo'jayeva va boshqa hissa qo'shgan. Veterinariya P.si sohasida N. V. Badanin, E. X. Ergashev, N. M. Matchanov, Sh. A. Azimov, R. X. Xaitov, B. S. Salimov, A. O. Oripov, A. Ro'zimuro-dov, M. Aminjonov, G. S. Po'latov va boshqa tadqiqot olib borishgan.

Agronomiya parazitologiyasi sohasidagi tadqiqotlarni 20-asrning 30-yillarida Ye. S. Kiryanova boshlab bergan. Keyinchalik fitogel-mintologiya deb atala boshlagan bu fanning rivojlanishida A. T. Tulaganov va shogirdlarining xizmatlari katta bo'ldi. O. Mavlonov, 3. Norboyev, Sh. Xurramov, O. 3. Usmonova, A. I. Zemlyanskaya, E. P. Azizova va boshqa fitogelmintologlar olib borgan tadqiqotlar tufayli eng muhim qishloq xo'jaligi ekinlari fitonematodalarining taksonomik tarkibi, biol.si, tarqalishi o'rganildi va ularga qarshi kurash choralari ishlab chiqildi. Parazitologiya sohasidagi tadqiqotlar O'zbekiston Fanlar akademiyasi Zoologiya ilmiy tadqiqot institutida, Fanlar akademiyasining Qoraqalpog'iston filiali bo'limlarida, O'zbekiston Veterinariya ilmiy tadqiqot institutida, universitetlar, qishloq xo'jaligi va tibbiyot institutlari krshidagi ka-fedralarda olib boriladi.²

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Parazitizm (yun. parasitos — tekinxo'r, hamtovoq, parazit va ismos — kasallik holati) — (biologiyada) oziqlanish orqali bog'langan va o'zaro moddalar almashinuviga asoslangan, genetik jihatdan turlicha bo'lgan organizmlarning tarixiy shakllangan assotsiatsiyasi. Parazitda bir

² А кбаев М .III . и др. “Паразитология и инвазионные болезни ж ивотны х” . М. КОЛОС. 2000.

organizm (parazit) ikkinchi organizm (xo'jayin)dan yashash muhiti va oziq, manbai sifatida foydalanadi: ikkala organizm ham o'zaro antagonistik munosabatda bo'ladi. Bundan tashqari, parazit—xo'ja-yin munosabatlari organizmda immunobiologik reaksiyalarni keltirib chiqaradi.

Hayvonot dunyosining deyarli barcha tiplarida parazitlik bilan hayot kechiruvchi turlar mavjud. Ba'zi bir sinflar (so'rg'ichlilar, tasmasimonlar), hatto tiplar (sporalilar, mikrosporidlar, tikanboshlilar) faqat parazit turlarni uz ichiga oladi. Bo'g'imoyoqlilar tipida parazitlar hasharotlar va o'rgimchaksimonlar sinfi vakillari orasida ko'p uchraydi. Umuman Yer yuzida mavjud bo'lgan hayvonlar turining 60—65 mingga (4—5%) parazit hayot kechiradi. "Parazit" terminining kelib chiqishi Yunonistonda, Perikl davrida (miloddan avvalgi 5-asr) mavjud qonunga asosan, ko'zga ko'ringan davlat arboblari keksalik yoshida davlat qaramog'iga o'tishgan. Ular uchun qurilgan maxsus pansionlar parasitariya, u yerda yashovchilar esa paras(z)itlar deb atalgan. Rim imperiyasi davrida parazit so'zi o'zgalar hisobiga yashovchi ma'nosini anglatib, hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Bu so'z biol., veterinariya va tibbiyotda ham xuddi shu ma'noda kirib kelgan bo'lib, boshqa organizm (xo'jayin) to'qimalari yoki hazm qilgan oziq moddalar bilan oziqlanadigan, uning ichki organlari yoki tana yuzasida vaqtincha yoki doi-miy yashaydigan organizmni anglatadi. Rus olimi R. S Shulsning fikricha, parazitning 1- mezonini uning yashash joyi; 2- oziqlanish usuli (metabolitik bog'liqligi) va 3- xo'jayin organizmiga patogen ta'siridan iborat. I. I. Mechnikov parazitizmni boshqa organizmlar hisobiga yashovchi va oziqlanuvchi jonivorlardebta'riflagan. Parazit bilan bog'lik hodisalar odam va hayvonlarda ancha batafsil o'rganilgan bo'lishiga karamay, uning kelib chiqishi va shakllanishi masalalarining ko'p jihatlari hozirgacha ma'lum emas. Bu avvalo hayvonlar evolyusiyasi bilan bog'liq.

Yashash joyiga ko'ra, parazit tashqi — ektoparazitizm (parazit xo'jayin tana-sining tashqarisida yashaydi) va ichki — endoparazitizm (parazit xo'jayin organizmi ichida yashaydi), yashash mud-datiga ko'ra, vaqtinchalik (parazit hayotining ma'lum bir qismi parazitlik bilan o'tadi) va doimiy (statsionar) (parazitning hamma rivojlanish bos-qichlari parazitlik bilan hayot kechiradi) bo'ladi.

Parazitlarni o'rganish va ularga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish bilan parazitologiya, gelmintologiya, mikrobiologiya, virusologiya va fitopatologiya shug'ullanadi.

Evolyusiya jara-yonida organizmlar o'rtasida turli xil biologik, xususan, indifferent (be-taraf), simbioz (o'zaro foydali), antagonistik (qaramaqarshi) munosabatlar vujudga kelgan.

Indifferent munosabatdagi organizmlar bir xil sharoitda va bitta hududda birgalikda yashab, bir-biriga foyda yoki ziyon keltirishmaydi (mas, dengiz ostida yashovchi aktiniyalar, dengiz yulduzlari, qisqichbaqasimonlar).

Simbioz munosabatda 2 yoki undan ortiq organizmlar o'zaro manfaatdorlikda yashaydi.

Bu munosabatlar asosida ijarada yashovchanlik (sinoykiya) va oziqlanish orqali bog'lanish (kommensalizm) yotadi. Barcha parazitlar evolyusiya jarayonida erkin yashovchi organizmlardan, ko'pchilik ektoparazitlar esa yirtqichlar oziqlanish muddatining asta-sekin uzayishi natijasida kelib chiqqan. Ektoparazitlar, ayniqsa, bo'g'imoyoqlilar orasida ko'p uchraydi. Uzoq, evolyusiya jarayonida bo'g'imoyoqlilar umurtqali qayvonlar bilan oziqlanish tufayli bog'lanishda bo'lishi orqali asta-sekin ektoparazitlarga aylanib borgan. Kanalar, parxo'rlar, patxo'rlar, junxo'rlar, bitlar va burgalar xuddi shu yo'l bilan vujudga kelgan.³

Ko'pchilik umurtqasizlarning umurtqali hayvonlar terisi, jabra yoriklari yoki boshqa organlariga yopishib hayot kechirishi, ular asta-sekin botib kirib oziqlanishga utishi tufayli ektoparazitlarga aylanib borgan. Infuzoriyalar va parazit qisqich-baqasimonlar bunga misol bo'ladi. Ba'zi hasharotlarning lichinkalari quruqlikdagi umurtqali hayvonlarning parazitlari hisoblanadi. Dastlab bu lichinkalar yaralardagi nobud bo'lgan to'qimalar yoki o'lgan hayvonlar bilan oziqlangan. Keyinchalik ular tirik to'qimalar bilan oziqlanishiga moslashib, haqiqiy parazitlarga aylangan. Endoparazitlarning kelib chiqishi ko'p jihatdan ektoparazitlarning evolyusiyasi bilan bevosita bog'liq. Terida parazitlik qiluvchi infuzoriyalarning bir guruhi va hasharotlar lichinkalari shu tariqa endoparazitlarga aylangan. Rus olimi V. A. Dogelning fikricha, erkin yashovchi umurtqasiz hayvonlarning sistalari, tuxumlari yoki lichinkalari tasodifan ovqat hazm qilish organlariga tushib qolib, u yerda rivojlanishni davom ettirishi natijasida endoparazitlarga aylanib qolgan. Ko'pchilik bir hujayralilar va nema-todalar shu yo'l bilan kelib chiqqan bo'lishi mumkin. Qon parazitlari parazitga yuksak darajada moslashgan bo'lib, dastlab ular ichakda parazitlik qilgan, keyinchalik turli yo'llar bilan qonga o'tib, u yerda yashashga muvofiklashgan bo'lishi mumkin. Parazitlarning hayot sikli va tarqalishini o'rganish ularga qarshi kurash va, ayniqsa, kasallik-darning oldini olishda juda muhim. Bunda parazitlar, parazit tashuvchi va oraliq xo'jayinlar dorilar yordamida yo'qotiladi. Parazit (zararkunanda) o'simliklarga qarshi biologik kurashdan (mas, parda qanotli hasharotlar — yaydoqchilardan) keng foydalaniladi.

Odam va hayvonlarning a'zo va to'qimalari hisobiga yashovchi mayda chuvalchanglar-gelmintlar(gijjalar) gelmintoz kasalliklarni keltirib chiqaradi. Bunda odam yoshi rol o'ynamaydi.

Kattalar ham, bolalar ham bir xilda kasallanishi mumkin. Gijja tuxumi odam organizmiga og'iz orqali tushadi.

³ Гинецинская Т.А., Добровольский А.А. Частная паразитология. П аразитические простейш ие и плоские черви. Учебное пособие для студентов биолог, спец. ВУЗов, т.1. М., 1978.

Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining "Respublikada parazitlar kasalliklarni profilaktik chora-tadbirlarini takomillashtirish to'g'risida"gi buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida bugun Sanepidqo'mita Oqdaryo tuman bo'limi xodimlari parazitologiya laboratoriyasi mutaxassislari tomonidan bugun Arpa mahalla hududida uyushmagan aholi 2-10 yoshdagi bolalar o'rtasida parazitlar kasalliklarni erta aniqlash maqsadida 67 ta laborator namunalari olindi va o'rnatilgan tartibda laborator tekshiruvlar o'tkazildi hamda bolalarni shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya etish bo'yicha onalarga tegishli tavsiyalar berildi.

Zamonaviy jamiyatda gijjalar hali ham keng tarqalgan. Gijjalar ayniqsa bolalar, ovchilar, baliqchilar va ularning oilalarida, shuningdek, qishloq joylarda yashovchi kishilarda ko'p uchraydi.

Gijjalar — bu bir qator parazit chuvalchanglar bo'lib, hayvon va o'simliklar hisobiga yashaydi, ularning ichida rivojlanadi va ko'payadi. Insonlar ham bundan istisno emas. Faqat bizning mamlakatimiz hududida parazitlarning 60 dan ortiq turli mavjud. Statistika ko'ra, yer sayyorasining har uchinchi insoni qurt-parazitlar tomonidan zararlangan. Taxmin qilinishicha, dunyoda hayoti davomida biron marta gijjasi bo'lmagan kishi yo'q, har bir kishi hech bo'lmaganda bir marta zararlanadi.

Ota-onalar farzandlari sog'lig'iga qanchalik e'tibor qaratishmasin, qo'llari tozaligini qancha nazorat qilishmasin, ularni gijjalardan (ostritsalardan) himoya qilish deyarli imkonsiz.

Bolalar tashqi muhitni o'rganishadi, tabiat ularda qiziqish uyg'otadi. Ular hamma narsaga teginib, uni tatib ko'rishni istaydilar. Baliq va yovvoyi hayvonlar va qushlarning go'shtini yeydiganlar, xonaki sut ichidaginalarda trixinellyoz va difillobotrioz bilan kasallanish xavfi mavjud.

Zamonaviy tibbiyot ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, ko'plab kasalliklar gijjalar mavjudligi bilan bog'liq. Masalan, parazitlar bilan uzoq vaqt davomida kasallanganlik bilan onkologiya o'rtasidagi aloqa klinik jihatdan isbotlangan. Insonlarda gijjalar borligini ko'rsatadigan belgilar ko'pincha shifokorlar va bemorlar tomonidan noto'g'ri talqin qilinadi.

Ular oshqozon-ichak tizimining mavjud bo'lmagan kasalliklarini davolashga kirishadilar.

Bemorlar holsizlikdan shikoyat qilib, uzoq vaqt davomida shifokorma-shifokor yurishlari mumkin. Ular keraksiz dori-darmonlarni qabul qilish orqali vaqt, pul va hatto sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatadilar. Natijada, shifo faqat alomatlar sababini bartaraf etish bilan keladi. Tegishli davolanishdan so'ng, barcha simptomlar bemorni tashvishga solmaydi.⁴

⁴ Кеннеди К.Р. Экологическая паразитология, перевод с англ. М., 1978.

O'zingizni himoya qilish uchun siz gijjalar tuxumi qanday tarqalishi va yuqishining 4 usulini bilishingiz kerak:

Tuproq va suv orqali — geogelmintoz. Ular qum, tuproq va suvda rivojlanadi, so'ngra inson tanasiga kiradi va u yerda tuxum qo'ya boshlaydi. So'ngra gijja tuxumlari najas bilan tashqi muhitga ajralib chiqadi va yangi insonni kasallash uchun o'z vaqtini kutadi. Yaxshi yuvilmagan meva va sabzavotlarni iste'mol qilish, iflos qo'llar, taomga chang tushishi insonga geogelmintlar yuqishiga olib kelishi mumkin. Parazitlarning ayrim tuxumlari inson organizmiga oyoq va tovon terisi orqali kiradi.

To'g'ridan-to'g'ri aloqa orqali. Uy hayvonlari va odamlardagi gijjalar qo'llar, o'yin davomida, qo'shma faoliyat orqali yuqadi.

Zararlangan hayvonot manbalaridan olingan oziq-ovqat mahsulotlaridan foydalanish — biogelmintoz. Xom va yomon ishlov berilgan go'shtni iste'mol qilish (shashlik, cho'chqa go'shti, go'sht konservalari, uy sharoitida ovlangan va tayyorlangan hayvonlar) va baliq (sushi, quritilgan baliq, baliq konservalari) potentsial xavflidir. Ichak infeksiyasi va biogelmintlar bilan kasallanish ehtimoli mavjud.

Hasharot chaqishi bilan. Bunday yuqish kam uchraydi. Bunga ichak miyasi, kantariya va skolekiya kiradi. Shuningdek, gijja tuxumlari va hasharotlarning lichinkalarini adashtirmaslik kerak, hasharotlar ham shuningdek hayvonlar va inson terisining tagiga lichinka qo'yadi (masalan, gadfly larva).

Tuproq, qum va boshqa turdagi zamin gijja tuxumlari uchun eng xos yashash muhitidir.

Mevali o'simliklar doimo yer bilan aloqa qiladi. Ko'katlar, meva va sabzavotlar terib olinish jarayonida ishchilar qo'llari, sabzavot do'konlarining changli rastalari, yuk tashish transportlari bilan aloqa qiladi. Bunday hollarda parazit tuxumlari bilan mahsulotni zararlanishi ehtimoli juda yuqori bo'ladi. Shuning uchun, o'simlik mahsulotlarni oqar suv ostida yaxshilab yuvish, keyin qaynoq suv bilan yuvish kerak.

Ayniqsa uy hayvonlari avval ko'chada yurib, keyin uyga kiradigan qishloq sharoitida hushyor bo'lish kerak. Bir kecha sayrdan keyin mushuk yoki it uyga qancha rasvolik kiritish mumkinligini tasavvur qilish qiyin emas. Chivinlar va suvaraklar ham gelmint tuxumlarini tashuvchilardir. Oziq-ovqat mahsulotiga o'tirib, hasharotlar sizning ovqatingizni zararlashi mumkin.

Tuproq va qum bilan har qanday aloqa qilish inson tanasiga gijja tushishiga olib kelishi ehtimolli. Shuning uchun qo'llarni yaxshilab, ayniqsa tirnoqlar osti bilan yuvish kerak. Xususan, bu bolalar uchun qo'llaniladi.

Odamdan odamga. Parazit yuqishining bu mexanizmi yuqori samaradorlikka ega. Misol uchun, ostritsalar kechki payt anus atrofida tuxum qo'yadi. Bola uyqu holatida, tuxum qo'yilgan joyni qashiy boshlaydi, chunki bu yerda qichish boshlanadi. Minglab tuxumlar kiyimga, to'shakka, ertalab esa bola yuz-qo'lini yuvguniga qadar tegingan barcha narsaga tushadi, masalan eshik dastasiga. Natijada, butun oila infeksiya tahdidiga duchor bo'ladi.

Suv bilan aloqa qilish. Ochiq suv havzalarida ko'plab gijjalar mavjud. Cho'milish va tasodifan suvni yutib yuborish zararlantirish ehtimolini tug'diradi.

Bolalarga gijja yuqishi ehtimoli kattalarga qaraganda ancha yuqori. Buning sababi bolalar tanasi yaxshi himoyalanganligi (himoya mexanizmlari shakllanish bosqichida bo'ladi) va bolaning tashqi muhit bilan aloqa qilishda faol ishtirok etishi. Ota-onalar farzandlarini shaxsiy gigiena qoidalariga o'rgatish uchun ancha harakat qilishlari kerak. 6 yoshgacha bo'lgan bolada zararlantirishning yuqori xavfi mavjud. Statistika ko'ra, 4-5 yoshdagi bo'lgan bolalarning 95 foizga yaqini gijjalar bilan kasallanadi. Shuning uchun profilaktika alohida e'tibor berilishi kerak.

Ko'p turdagi gijjalar tananing ichida yashaydi, faqat u yerda tuxum qo'yadi va ma'lum bir muddatdan so'ng ular nobud bo'ladi. Misol uchun, ostritsalar 6-8 hafta, askaridalar 1 yilgacha yashaydi. Tanadagi parazitlar soni tashqaridan yangi tuxum tushishi bilan ortib boraveradi.

Davolash qurtlardan tezroq qutulish va ichaklarda tuxum qo'yishni to'xtatish imkonini beradi. Gijjalar bilan ishg'ol qilingan bolalarni dori-darmonlarsiz davolash deyarli imkonsiz.

Yangi gijja tuxumlari doimo og'izga tushib, bolaning tanasidagi shundoq ham ko'p bolgan gijjalar safini to'ldirib boraveradi.

Qanday belgilarga ko'ra gijja mavjudligini aniqlash mumkin?

Insonlarda gijja paydo bo'lishining alomatlari aniq va yashiringan bo'ladi. Aniq belgilarga «sababsiz» vazn yo'qotish, teri rangining ochligi (teri anemiyasi), surunkali charchash, anal teshigi atrofidagi kechki qichishish misol bo'la oladi. Ushbu alomatlar hammaga yaxshi ma'lum va zararlantirishni ko'rsatadi.

Bir qator hollarda gijja yuqishi oqibatida ichki a'zolar kasalliklari kuchayishi, ilgari namoyon bo'lmagan kasalliklarning paydo bo'lishi kuzatiladi. Bu yashirin alomatlar hisoblanadi.

Kishi turli xil kasalliklarni davolashga kirishadi, ammo asosiy sababga e'tibor bermaydi.

Davolash esa natijasiz bo'ladi. Bunday holatlarga misollar:

Yuqumli kasalliklar immunitet darajasining pasayishi natijasida yuzaga keladi. Parazitlar inson tanasida ko'p miqdorda oziqa moddalarini iste'mol qiladi, toksik moddalar chiqaradi.

Bunday holatlar bemorning immunitetini sezilarli darajada kamaytiradi. Surunkali kasalliklarning kuchayishi, burun-halqumda turli xil yallig‘lanish jarayonlari boshlanishi mumkin.

Gaymorit yoki stomatitni standart usulda davolash samarasiz bo‘lishi qayd qilinadi.

Kasalliklarning asosiy sababini bartaraf qilish muhimdir. Qizlar va ayollarda bachadon tanasining yallig‘lanish jarayonlari, vulvovaginit, vaginozlar boshlanishi mumkin. Xalq udumlari ta’kidlaydi: agar kishi tushida tishini g‘ijirlatsa yoki xurрак otsa, uni gijjalardan davolash kerak.

Ammo bu ma’lumot tibbiyot fanlari tomonidan tasdiqlanmagan.

Tananing umumiy zaharlanishidan kelib chiqqan holsizlik. Kishida gijjalar qancha ko‘p bo‘lsa, ular shunchalik ko‘p zararli moddalar ishlab chiqaradi. Bu kattalar va bolalar salomatligi va asab tizimiga salbiy ta’sir qiladi. Bunga misol, bosh og‘rig‘i, bosh aylanishi, bo‘g‘imlardagi og‘riq. Ko‘ngil aynishini yengib o‘tib, odam og‘riq qoldiruvchi dori ichadi, ammo og‘riq qisqa vaqt ichida yana qaytadi: chunki kasallikning sababiga e’tibor berilmayapti. Bolalarda asab tizimidagi faoliyatning buzilishi bezovtalik, befarqlik, agressiya bilan birga kechadi.⁵

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Invazion kasalliklar — odam, hayvon va o‘simliklarda eng sodda parazit jonivorlar (chuvalchang, kana va ba’zi bo‘g‘imoyoqlilar) qo‘zg‘atadigan kasallik. Ayrim parazitlar o‘z rivojlanishining ma’lum bir bosqichida, boshqalari esa butun hayoti davomida xo‘jayin (odamda — antroponozlar, hayvonlarda — zoonozlar) organizmda parazitlik qilib invazion kasalliklarni qo‘zg‘atadi. Parazitlar xo‘jayin organizmiga zararlangan teri (aktiv) va oziq-ovqat orqali (passiv) kiradi. Odamlarda uchraydigan invazion kasalliklarga gelmintozlar, protozoozlar (qo‘zg‘atuvchisi sodda parazitlar; mas, amyobiaz), akarozlar (qo‘zg‘atuvchisi kana; qo‘tir), entomozlar (parazit hasharotlar qo‘zg‘atadigan bitli-qilik) kiradi. Asosan, askaridoz, bezgak, toksoplazmoz, trixomonoz, enterobioz va boshqalarda ko‘p kuzatiladi.

Hayvonlarda uchraydigan invazion kasalliklarga gelmintozlar, protozoozlar (babezioz, konsidiozlar va b.), araxnozlar, entomozlar kiradi. Invazion kasalliklar chorva mahsuldorligini pasaytiradi, ba’zan hayvonlar o‘limiga sabab bo‘ladi, natijada chor-vachilikka katta zarar yetkazadi.

Ayrim invazion kasalliklar (trixinellyoz, sistitserkoz) odam uchun xavfli, bu kasalliklar bilan zararlangan mollar go’shtini iste’mol qilishga ruxsat etilmaydi.

Kurash choralari qo‘zg‘atuvchi biologiyasiga qarab tayinlanadi, turli dori-darmonlar, degelmintizatsiya, dezinseksiya, kanalarga qarshi vositalar qo‘llanadi.

⁵ Генис Д.Е. М медицинская паразитология. М., “М едичина”, 1991.

O'simliklar invazion kasalliklar orasida bug'doy nematodasi va lavlagi nematodasi qo'zg'atadigan kasalliklar ko'proq tarqalgan.

REFERENCES

1. Абуладзе К.И., Демидов Н.В., Непоклонов А.А., Никольский С.Н., Павлова Н.В., Степанов А.В. "Паразитология и инвазионные болезни сельскохозяйственных животных". Учебник для студентов ВУЗов по специальности "Ветеринария". М., 1990.
2. Акбаев М.Ш. и др. "Паразитология и инвазионные болезни животных". М. КОЛОС. 2000.
3. Биология. Большой энциклопедический словарь. Научное издательство "Большая Российская энциклопедия". М., 1998.
4. Генис Д.Е. Медицинская паразитология. М., "Медицина", 1991.
5. Гинецинская Т.А., Добровольский А.А. Частная паразитология. Паразитические простейшие и плоские черви. Учебное пособие для студентов биолог, спец. ВУЗов, т.1. М., 1978.
6. Гинецинская Т.А., Добровольский А.А. Частная паразитология. Круглые черви, моллюски и членистоногие. Учебное пособие для студентов биолог, спец. ВУЗов, т.2. М., 1978.
7. D adayev S.D., Parazitologiya. Oliy o'quv yurtlari biologiya ixtisosligi talabalari uchun ma'ruzalar matni. T., 2002.
8. D adayev S.D. Kanalar va ularga qarshi kurash choralari. O'quv metodik qo'llanma. T., 2004.
9. Dubovskiy G.K., Ummatov A.Sh. Zoologiyadan o'quv qo'llanma, 2-qism. Umumiy urtqasiz hayvonlar (hasharotlar). T., 1996.
10. Кеннеди К.Р. Экологическая паразитология, перевод с англ. М., 1978.